O`SMIRLIK YOSHIDAGI O`QUVCHILARIDA SALBIY HULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXO-FIZIOLOGIK ASOSLARI

Ergasheva Gulmiraxon Hamidullayevna
Izboskan tumani 10-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: *ushbu maqolada bugungi kun ta`lim dargohlaridagi tarbiyasi qiyin bo`lgan o`smirlar haqida so`z boradi. Ushbu hulq-atvorning psixofiziologik asosi aynan nimalardan iborat ekanligiga to`xtalib o`tiladi.*

Kalit so`zlar: *deviant, delikvent, destruktiv hulq, temperament.*

Salbiy his-tuyg'ular va ularning inson ruhiyatidagi asosini aniqlash bugungi pedagoglari, psixologlari va huquq tartibot o`rganlari tomonidan tahlil qilinishi va o`rganilishi zarur bo'lgan eng muhim soxalardan biri desak adashmagan bo`lamiz. Chunki agressiyaga moyillik, depressiyaga tushish va stress holatlarining insonda keng avj olishi o'z-o`zidan bir qancha savollarni yuzaga kelishiga sabab bo`lmoqda:

- Salbiy hulq-atvor o`zi nima?
- Ushbu holatlarga moyillik uyg`ondimi yoki atrof-muhit shunga majbur qilmoqdami?
- Ushbu holatlarga moyillik hayot davomida orttirilganmi yoki nasliymi?
- Ushbu holatlar insonning shakllanishiga sabab bo`ladimi yoki faqat uni izdan chiqaradimi?
- Ushbu holatlar faqat hozir sodir bo`lmoqdami yoki avvalgi davrlarda ham shunday bo`lganmi?
- Ushbu holatlarni yuzaga keltiruvchi omillar nimalardan iborat?
- Holat shunday davom etsa oqibati insoniyat uchun foydalimi yoki zararli?

Buyuk ulamolar o`zlarining noyob asarlarida "Men dunyoni angladim lek o`zimni anlay olmadim" deya o`zlariga ta`rif berar ekanlar o`zlikni anglash dunyoni tushunishdan ko`ra ancha murakkab ekanligini aytib o`tkanlar. Salbiy hulq-atvorning negiziga qarar ekanmiz insonning ong osti ong olamiga kirib boramiz. Ilm-fanda salbiy hulq-atvor destruktiv hulq-atvor deb ham ta`riflanadi. Destruktiv xulq 2 ta asosiy turlarda namoyon bo'ladi:

1. Delikvent tur - jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy huquqiy me'yorlarga qarama qarshi bo'lgan xatti - harakatlarga xulqning yo'nalganligidir.
2. Deviant tur - jamiyatda qabul qiliingan axloqiy me'yorlarga qarama — qarshi xulqiy ko'rinshlarni namoyon etish.

Destruktiv xulqning barcha ko'rinishlarida insonning ma'lum bir himoya reaksiyalari sifatida yuzaga kelsada biroq nerv sistemasida buzilishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Destruktiv xulq bolalikdagi salbiy emotsional kechinmalar, ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yetarli darajada mehr-muhabbatga ega bo'lmaganligi, nasliy omillar bo'lishi ham mumkin.

Delikvent xatti-harakatlar odamning noqonuniy xatti-harakatlarini nazarda tutadi. Psixologiya sohasidagi mutaxassislarning fikriga ko’ra, bunday xatti-harakatlarga madaniy qadriyatlarni yo’qotish, iqtisodiy tanazzul, zo’ravonlik sahnalari bo`lgan reklamalar yordam beradi.

- spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar bilan bog’liq muammolar;
- madaniyatning past darajasi;
- yomon moliyaviy ahvol.

Agar biz deviant xatti-harakatlar haqida gapiradigan bo’lsak, unda bu holda alkogol, giyohvand moddalarni iste’mol qilish va axloqsiz o’zini tutish faqat o’ziga zarar etkazadi. Delikvent jinoyatchilarning xatti-harakatlarini to’g’irlash uchun turli xil fan sohalari tomonidan faol o’rganiladi.

Deviant xulq - muayyan jamoadagi ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga zid bo'lgan xatti-harakatlarning sodir etilishi. Deviant xulq-atvorning asosiy turlariga birinchi navbatda jinoyat, alkogolizm va giyohvandlik, shuningdek, o'z joniga qasd qilish, fohishalik kiradi. E.Dyurkgeymning fikriga ko'ra, jamiyat darajasida amalga oshirilayotgan me'yoriy nazoratning zaiflashishi bilan xatti-harakatlarning og'ish ehtimoli sezilarli darajada oshadi. R. Mertonning anomiya nazariyasiga ko'ra, deviant xulq-atvor birinchi navbatda jamiyat tomonidan qabul qilingan va belgilangan qadriyatlarga ushbu jamiyatning qaysidir qismi erisha olmaganida yuzaga keladi. Ijtimoiylashuv nazariyasi kontekstida odamlar deviant xulq-atvorga moyil bo'lib, ularning ijtimoiylashuvi deviant xatti-harakatlarning ayrim elementlarini (zo'ravonlik, axloqsizlik) rag'batlantirish yoki e'tiborsiz qoldirish sharoitida sodir bo'ladi. Stigmatizatsiya nazariyasida deviant xulq-atvorning paydo bo'lishi, hatto shaxsni ijtimoiy deviant deb ta'riflash va unga nisbatan repressiv yoki tuzatish choralarini qo'llash bilan ham mumkin bo'ladi, deb ishoniladi.

O‘smirlarda uchraydigan salbiy xulq-atvor ikki guruhga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Xulq-atvor mativlarining noto‘g‘ri rivojlanishi yoki kuchli effektli his tuyg‘ular ya’ni turli tartib intizomsizliklar, atrofdagi insonlar bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish natijasida turli konfliktlarning vujudga kelishi, turli tasodifiy guruhlarga kirish, jamoada o‘zini ko‘rsatishga intilish.

2. O‘quvchi o‘smirlarning maktabdagi tartib qoidalarni tushunib yetmaslik yoki o‘zlarining xulq-atvorini boshqara olmaslik, agressivlik ya’ni jismoniy kuch ishlatish, qo‘rqitish, serzardalik. Bu ikki faktor asosida vujudga keladi. Birinchidan temperament xususiyati, ikkinchidan o‘qituvchi va tengdoshlari bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlar shakllanishining yana bir asosiy omili bu o‘smirlarning shaxsiy psixologik xususiyatlaridir:

1. Sangvinik temperamentdagi o‘smirlarda his-tuygular tashqi ko‘rinishda yorqin ifodalangan bo‘ladi: Ma’noli mimika, aniq imo ishora, tez harakat qilish, tez gapirish, beqarorlik, harakatchanlik, chaqqonlik. Sangvinik., o‘smirlarning kayfiyati tez o‘zgaradi. Bu tipdagi o‘smirlar boshqalar bilan tez topishib ketadi. Ularda o‘quv ishlarida, mehnatda va jamoat ishlarida faollikni tarbiyalash lozim. Ularni boshqa

ishlarga berilib ketmasligi uchun doimo nazorat qilish va kuchi yetadigan ish bilan band qilish kerak.

2. Flegmatik temperamentdagi oʻsmir ogʻir, vazmin, harakatlari salmoqli boʻladi.

Ular boshlagan ishini oxiriga yetkazadi. Flegmatik tipdagi oʻsmirlarda barcha psixik jarayonlar sust rivojlangan boʻladi. Ularning jahlini chiqarish yoki ranjitish qiyin, ba'zi hollarda bu temperamentli oʻsmirlarda mehnatga, tevarak atrofga, hayotga kishilarga va oʻziga nisbatan beparvo munosabat hollari uchraydi. Shuning uchun ulardagi sovuqqonlik, beparvolik, boʻshanglik, faoliyatsizlikning nomoyon boʻlishga yoʻl qoʻymaslik kerak.

3. Xolerik temperamentdagi oʻsmirlar chaqqon, harakatchan, qoʻzgaluvchan boʻladilar. Ularda barcha jarayonlar tez sodir boʻladi. Bu tipdagi oʻsmirlar hissiyotlari kuchli, yorqin ifodalanib tez paydo boʻladi, ba'zan kayfiyati keskin oʻzgaradi.

Xolerik tipdagi oʻsmir boshqalar bilan munosabatda qat'iylik, serjahllik va oʻzini tuta olmaslikka yoʻl qoʻyadi. Natijada kishilar xatti-harakatini ob'yektiv baholay olmaydi va ziddiyatli vaziyatlar tudiradi. Haddan ortiq dangallik, serjahllik, koʻngilga qattiq tegadigan soʻzlar ishlatishi tufayli bunday oʻsmirlarni jamoada yoqtirmaydilar.

Xolerik tipdagi oʻsmirlardan doimo muloyimlik bilan, ammo qat'iyatli, shoshilmay, oʻylab javob qaytarishlarini talab qilish, ular xatti-harakatlarida oʻrtoqlari va kattalar bilan boʻlgan munosabatlarida oʻzini tutishlikni tarbiyalab borish lozim. Bunday oʻsmirlardan mehnat faoliyatida izchillikni va ishda tartibli boʻlishni tarbiyalash hamma topshiriqlarni ish mobaynida yaxshi bajarishlarini talab qilish lozim.

4. Melanxolik temperamentdagi oʻsmirlarda psixik jarayonlarning sust oʻtishi qayd qilinadi. Ular kuchli qoʻzovchilarga qiyinchilik bilan javob qaytaradilar, diqqatlarini bir narsaga uzoq vaqt va kuchli jalb eta olmaydilar. Bunday tipdagilar ishga passiv, kam qiziquvchan boʻladilar, ularda hissiyot va hayajonli holatlar keskin paydo boʻladi va chuqur, davomli boʻladi. Ularni ranjitish oson, xafagarchilikka

bardosh bera olmaydilar. Melanxolik tipdagi oʻsmirlar odamlar bilan aralashmaslikka va yolgizlikka moyil boʻladilar lekin odatlangan sharoitda oʻzlarini erkin his qiladilar va unumli ishlaydilar. Shuning uchun bunday oʻsmirlarda odamga el boʻlishlikni oʻstirish, jamoada doʻstlik va oʻrtoqlik hislarini tarbiyalash zarur, chunki ular osonlikcha yakkalanib, oʻz kechinmalariga berilib ketishi yoki jamoadan chetga chiqib, salbiy ta'sirlarga tushib qolishi mumkin.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, insonning psixofiziologik asosinini , atrof muhitini anglamay turib destruktiv hulq-atvor qanday shakllanganini anglab bo`lmas ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR RO`YXATI:

1.Anikeeva N.P. "Jamoada ruhiy muhit". Toshkent, "Oʻqituvchi", 1993.

2.Vilyunas V.K. "Emotsional holatlar psixologiyasi". Moskva, 1976.

3.Gamezo M.V., Domashenko I.A. "Psixologiyadan atlas". Moskva, "Prosveoʻeniye". 1986.

4.Granovskaya R.M. "Amaliy psixologiya elementlari". LGU 1988.

5.Davidov V.V. tahriri ostida: "Psixologik lug’at". Moskva, "Pedagogika", 1983.

6. https://behruzbek.uz/psixologiya/delikvent-xatti-harakatlar-va-uning-sabablari/

7.https://themeformen.ru/uz/the-treatment-of-burns/priznaki-otklonyayushchegosya-povedeniya-faktory-opredelyayushchie-ego-razvitie/